



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

TARIX FAKUL'TETI

“MILLIY G'OYA VA MA'NAVIYAT ASOSLARI” KAFEDRASI

**“Milliy g'oya , ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi“ yo'nalishi 403-guruh
talabasi Berdiyev Davron**

REFERAT

**MAVZU: Milliy qadriyatlar va ularning milliy ma'naviy tiklanishda tutgan
o'rni.**



Ilmiy rahbar:_____U.Nigmanova

Kafedra mudiri_____ M.Sobirova

Toshkent-2014

REJA:

KIRISH

I.BOB. MILLIY MA'NAVIY TIKLANISHDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI.

1.1. Milliy udumlar, urf-odat va an'analar xalq ma'naviyatini shakllantirish omili.

1.2. Milliy qadriyatlar, diniy qadriyatlarning inson hayotidagi ahamiyati.

II.BOB. MILLIY TIKLANISHDA UMUMBASHARIY QADRIYATLAR.

2.1. Mahalla- milliy qadriyatlar maskani.

2.2. Milliy taraqqiyotda umumbashariy qadriyatlarning o'rni.

XULOSA

ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Xalqimizning madaniy-ma'naviy boyliklari va milliy qadriyatlarini to'la, oqilona egallash va rivojlantirish hozirgi avlodning vazifasidir. Gap o'tmish madaniy-ma'naviy boyliklariga ega bo'lishdagina emas, balki uni chuqur egallab, yangi yuksak bosqichga ko'tara bilishdadir.

Qadriyat tushunchasi hayotning o'zi kabi keng qamrovli bo'lib, u har bir xalq ming yillar davomida hayotning turli sohalari bo'yicha sayqallab to'plagan tajribalaridir. Axloqiy qadriyatlar, harbiy qadriyatlar, davlatchilik qadriyatlari - bularning hammasi bir butun holda halqning dunyoviy qiyofasini o'ziga xos tarzda belgilaydi. Darhaqiqat, O'zbekistonning kuch - qudrati manbai - xalqimizning umuminsoniy qadriyatlariga sodiqligi, ulug' ajdodlarimizning avlodlarga o'tayotgan ma'naviy merosi-ning kuchliligida, fuqarolarimizning el - yurtga, ona-zaminga bitmas-tuganmas mehrida, milliy g'ururidadir.

Hozirgi paytda taraqqiyotimiz taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. Aqliy zakovat, ruhiy, ma'naviy kamolot, insofu diyonat, muruvvat, mehr-oqibat - bular ma'rifatli, ma'naviyatli insonning asosiy fazilatlaridir.

Milliy qadriyatlar ustida fikr yuritganda yana bir muhim masalani alohida ta'kidlashga to'g'ri keladi. Ma'lumki, qadimiy urf-odatimizga ko'ra, o'zbek oilalarida, ayniqsa, ko'p bolali xonadonlarda yoshlar bolaligidanoq mehnat quchog'ida tarbiyalanadi, mehnatda chiniqadi. Dalada, uy-joyda ota-onaga yordam berib, mehnat qilib, hali hech bir bola mayib bo'lgan emas. Aksincha, mehnat qilgan bola chiniqqan, oq-qorani tanigan, ota-onasining qadriga yetgan. Mehnat qilib murakkab hayot yo'lida uchrashi mumkin bo'lgan har qanday to'siq va qiyinchiliklarni sabr-toqat bilan yengib o'tishga o'rgangan.

Mavzuning maqsadi. Milliy qadriyatlarimizda **bilim va bilimdonlik** juda ulug'lanadi. Bilim va zakovatning qadr-qimmatini, jamiyat taraqqiyoti, shaxsning madaniy-ma'naviy, axloqiy kamoloti uchun ahamiyati haqida qanchadan-qancha kitoblar bitilganini, rivoyatlar aytilganini, maqollar to'qilganini hammamiz juda yaxshi bilamiz. Bilim eng katta boylik ekanligi, dunyoda undan qadrliroq narsa yo'qligi to'g'risida Nizomulmulkning "Siyosatnoma", Nosir Xisravning "Saodatnoma", "Ro'shnoma", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilik", Ahmad Yugnakiyning "Hibatul haqoyiq", Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat", Alisher Navoiyning "Xamsa" kabi mashhur asarlarida bir-biridan muhim, bir-biridan sermazmun fikrlar bayon etilgan.

Bizning madaniyatimiz va tariximizda insonni ilm asoslarini bilib olishga da'vat etmagan, bilimning xosiyati haqida kuyib-yonib so'zlamagan bironta shoir va yozuvchi, bironta olim bo'lmagan. Buning uchun loaqal Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning, Abu Nasr Forobiyning, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinoning muborak nomlarini eslashning o'zi kifoya qiladi. Ularning qalamlariga mansub bo'lgan asarlarning har biri insoniyat uchun mislsiz boylik, bitmas-tuganmas xazinalar konidir.

O'zlarining aql-idroklari, tafakkur quvvati, zehn-zakovati, buyuk kashfiyotlari, ilm-fani bilan dunyoni hozirgacha lol qoldirib kelayotgan buyuk mutafakkirlari, fuzaloyu ulamolari benihoya ko'pligi bilan o'zbek xalqi har qancha faxrlansa, iftixor qilsa, boshini baland ko'tarib g'ururlanib yursa arziydi! O'zbeklar nasl-nasabi, o'tmishi nihoyatda ulug' va baquvvat, ildizi juda chuqur, qadimiy xalqlardan biridir. Biz tarix maydonida kuni kecha paydo bo'lgan xalq emasmiz.

Ilm-fanga o'chlik, ma'rifat tomon talpinish, madaniyatga tashnalik, odob-axloq qoidalarini chuqur o'zlashtirib hayotga tatbiq etishga intilish, kitob mutolaasini hech qachon kanda qilmaslik, zehnini o'tkirlab, fikrini boyitib, tafakkur quvvatini oshirishga doimo shay turish - bularning hammasi o'zbek xalqiga ajdodlaridan o'tib kelayotgan buyuk an'ana, ajoyib meros bo'lib, uning qon-qoniga chuqur singib ketgan.

Mavzuning vazifasi. Yoshlar ma'naviyatini turli illatlardan saqlab qolishning eng muhim omili bu tarbiya, tarbiya esa, avvalo, oiladan boshlanadi. Zero, oila jamiyatning bosh bo'g'ini, tarbiyaning asosiy tayanchidir.

Odamlarni, xususan yoshlarni har qanday ta'sirlardan, buzg'unchiliklardan asrashning yagona yo'li avvalo, oilada ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani davom ettirish, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan qarshi turmoq lozim. **«Tarbiya, - deyiladi muqaddas «Avesto»da, - hayotning eng muhim tayanchi bo'lib hisoblanishi lozim».** Bugungi tahlikali davrda agar **ota-onaning o'zi** tarbiyalangan, milliy-ma'naviy qadriyatlardan xabardor va unga qat'iy amal qiladigan bo'lsagina, ular tarbiyalayotgan farzandda milliy xususiyatlarni ko'rish mumkin. Onaning o'zi «zamonaviy»man deb yarimyalang'och kiyinsa, behayo so'zlarni odat qilgan bo'lsa, spirtli ichimliklarni iste'mol qilib tursa, yengiltaklik ko'chasida yurgan bo'lsa yoki bunday qusurlarga ota ruju qo'ygan bo'lsa, ular tarbiyalayotgan farzandda qanday qilib ma'naviy kemtiklik bo'lmaydi, deya olamiz. **«Farzandlar tarbiyasidagi fazilatlar va nuqsonlar sababchisi bolaning o'zi emas, balki, uning ota-onalaridir»**, deganda nechog'li haq edi, o'zbek mumtoz adabiyotining namoyandalaridan biri Yusuf Xos Hojib. Zero, millat, mamlakat

ma'naviy taraqqiyoti oiladan boshlanar ekan, Prezidentning quyidagi fikri uni yana bir bor isbotlab beradi: **«...Oila sog'lom ekan-jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan-mamlakat barqarordir»¹**.

Haqiqatan, inson tarbiyasi, uning ma'naviy kamolati oilada tarkib topa boradi. Axir «Qush uyasida ko'rganini qiladi», deb bejiz aytishmaydi. Aynan oila muhitida paydo bo'ladigan ota-onaga hurmat, ularning oldidagi umrbod qarzdorlik burchini chuqur anglash, har qaysi insonga xos bo'lgan odamiylik fazilatlari va oilaviy munosabatlarning negizini, oilaning ma'naviy olami tashkil etadi. SHunday ekan, oiladagi muhitni yaxshilash, har tomonlama mustahkam oilalarni ko'paytirish oldimizda turgan muhim vazifa.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 58-b.

I.BOB. MILLIY MA'NAVIY TIKLANISHDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI.

1.1. Milliy udumlar, urf-odat va an'analar xalq ma'naviyatini shakllantirish omili.

Or – nomus, hamiyat, mardlik, vijdon amriga itoat etish, adolatpeshalik, haqgo'ylik sifatleri necha asrlardan beri davom etib kelmoqda. Hayo, andisha, lafz, omonatga xiyonat qilmaslik, rostgo'ylik dini islomimizda ham, xalq tushunchasida ham mustahkam o'rin tutib kelgan. «Hayo iymondandir», deyiladi muborak Hadisi sharifda. Ulug' allomalarimiz o'z asarlarida bu xislatlarni komil inson fazilatleri sifatida ulug'lab kelganlar. **“Haromdan yiroq yurgin, tongla qiyomat kuni otashda kuymaysan»**, deya uqtiradi Abduxoliq G'ijduvoni. She'riyat sultoni Alisher Navoiy esa o'zining «Mahbub ul-qulub» asarida: **«Odamiyning yaxshirog'i uldirkim, parso va pok bo'lgay va haq so'zni ayturda bevahmu pok bo'lgay. O'zi poku ko'zi pokni inson desa bo'lur, tili arig' (nozik) va ko'ngli arig'ni musulmon desa bo'lur»**, deydi. O'zbek xalqining ma'naviy qiyofasi uning milliy xususiyatlari bilan go'zal va boshqa xalqlardan ham u o'zining ana shu xususiyatlari bilan ajralib turadi. Milliy udumlar, urf-odatlar va an'analar xalq ma'naviyatini boyituvchi muhim omil ekanligi haqida gapirib, I.A.Karimov quyidagi fikrlarni bildirib o'tadi: “Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi”².

Bugun G'arbning ayrim “o'ta liberallar»i milliy urf –odat, an'analar mamlakat taraqqiyoti va undagi demokratiyaga zid keladi, iloji boricha ulardan voz kechish kerak, degan qarashlarni targ'ib etmoqdalar. Ular G'arb mamlakatlarida mavjud an'ana, udum va odatlar, turmush tarzi yer yuzining hamma joyida birday amal qilishini istaydilar. Ularning istagiga ko'ra, SHarq mamlakatlari o'z milliy qiyofasi, ma'naviy–axloqiy qadriyatlaridan voz kechishi, ya'ni, xalq yoppasiga amerikalashishi yoki yevropalashishi kerak. G'arb mamlakatlaridagi «buyuk tafakkur» egalari fikricha, farzand ulg'aygandan so'ng, u butunlay mustaqil shaxs, u endi ota–ona maslahatlariga muhtoj emas, har qanday ishni bemalol o'zi hech kimning maslahatisiz hal eta oladi. Oilada ham har bir kishi o'z muammosini o'zi mustaqil hal etishi kerak, har kim o'zi uchun yashaydi, er xotin ishiga, xotin er ishiga aralashishi mumkin emas. Kishidagi betgachoparlik, manmanlik, andishasizlik ular uchun o'z huquqini himoya qilish, ya'ni “demokratiya“ deb baholanadi. Bu va bunga o'xshash

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 29-30-b.

illatlarni xalqimiz azal–azaldan qoralab kelgan. Bu illatlar g’arbliklar jar solayotgan “yuqori madaniyatli“lik belgisi emas, bu milliy qiyofasini buzish, milliy iftixor, milliy o’zlikni anglashdan mahrum etish, turli illatlarni kuchaytirib, ruhiy–ma’naviy fazilatlarni, ya’ni odamiylikni yo’q qilishdir. Bu g’oyat qabix niyatdir. Bunda nafaqat alohida shaxslar shikastlanadi, balki butun millatlar yemiriladi va odamlarimiz shunday g’oyani olib kelib singdirganlar uchun tayyor qurolga, «taraqqiy etgan» qulga aylanadilar. Ana shunday ahvolga tushmaslik uchun yoshlarimiz qalbida milliy–ma’naviy qadriyatlarni tinmay tarbiyalab borishimiz zarur. Bugun milliy ma’naviyatimizni izdan chiqarishga qaratilgan buzg’unchi kuchlarga zarba berish uchun birinchi galda ularning mafkurasi va falsafasini, bu kuchlar qaerdan ma’naviy oziqlanayotganligi hamda maqsadlarini aniq - tiniq tasavvur etish kifoya va yoshlarga ularning buzg’unchi niyatlarini ochiq–oydin tushuntirib berishimiz darkor.

Xalq o’rtasida buzg’unchi kuchlar mafkurasiga qarshi milliy ma’naviyatimiz boylıkları targ’ibotini tobora kuchaytirib borish zarur. Bu sohada mamlakatimizda katta ishlar amalga oshirilmokda. Milliy–ma’naviy tiklanishlar va ma’naviyatimiz targ’iboti boshida Yurtboshimiz I.A.Karimovning o’zi turibdi. Bugun xalqimizning yo’qlik sari yuz tutgan barcha milliy–ma’naviy qadriyatlarini tiklash va ularning targ’ib–tashviqotiga alohida ahamiyat berilmoqda.

SHuncha harakatlarga qaramay, ba’zan turli sabablar bilan odamlar, yoshlar orasida turli buzg’unchi illatlar ta’siriga tushib qolgan kimsalarni ham uchratib turibmiz. Bugun jinoyat ko’chasiga kirib qolgan, giyohvandlik tufayli jismonan va ruhan mayib–majruh bo’lgan, hatto, ota-onasi oldidagi farzandlik burchini unutib, ularni mexribonlik uyiga elitib qo’yayotgan yoshlar uchrab turibdi. Ko’cha–ko’yda ochiq–sochiq kiyinib, behayo so’zlarni bemalol gapirib, hammaning asabiga tegadigan yoshlar qaerdan paydo bo’lyapti? Hayotga yengil – yelpi qarashga o’rgangan, turmushning ilk qiyinchiliklari oldida dosh bera olmay ajrashib ketayotgan yosh oilalar qancha. O’rtada farzandlar yetim, yetim bolalar uylari soni ortsa ortyaptiki, kamayayotgani yo’q. Bu nimaning oqibati, degan savolga bu turli buzg’unchi g’oyalar ta’siri oqibati, inson ma’naviyatidagi kemptiklik, deyish mumkin.

Aslida, yer yuzida bekamu ko’st jamiyatning, davlatning o’zi bo’lmagan, bo’lmaydi ham. Ideal inson bo’lmagani kabi, kamchiliksiz odamning o’zi yo’q. Ammo xalq tomonidan ardoqlanib, avaylab-asrab kelinayotgan qadriyatlar, odob- axloq me’yorlariga rioya etmaslik SHarq mamlakatlarida ma’naviyatidagi illat hisoblanadi. Xo’sh, balo–qazodek yopirilib

kelayotgan bunday illatlarga qanday qarshi kurashish kerak, ularning, kelajagimiz bo'lmish yoshlar ongini zaharlamasliklari uchun nima qilish kerak, degan haqli savol o'z – o'zidan paydo bo'lib turibdi.

Yoshlar ma'naviyatini turli illatlardan saqlab qolishning eng muhim omili bu tarbiya, tarbiya esa, avvalo, oiladan boshlanadi. Zero, oila jamiyatning bosh bo'g'ini, tarbiyaning asosiy tayanchidir.

Odamlarni, xususan yoshlarni har qanday ta'sirlardan, buzg'unchiliklardan asrashning yagona yo'li avvalo, oilada ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani davom ettirish, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan qarshi turmoq lozim. **«Tarbiya, - deyiladi muqaddas «Avesto»da, - hayotning eng muhim tayanchi bo'lib hisoblanishi lozim».** Bugungi tahlikali davrda agar **ota-onaning o'zi** tarbiyalangan, milliy–ma'naviy qadriyatlardan xabardor va unga qat'iy amal qiladigan bo'lsagina, ular tarbiyalayotgan farzandda milliy xususiyatlarni ko'rish mumkin. Onaning o'zi «zamonaviy»man deb yarimyalang'och kiyinsa, behayo so'zlarni odat qilgan bo'lsa, spirtli ichimliklarni iste'mol qilib tursa, yengiltaklik ko'chasida yurgan bo'lsa yoki bunday qusurlarga ota ruju qo'ygan bo'lsa, ular tarbiyalayotgan farzandda qanday qilib ma'naviy kemtiklik bo'lmaydi, deya olamiz. **«Farzandlar tarbiyasidagi fazilatlar va nuqsonlar sababchisi bolaning o'zi emas, balki, uning ota-onalaridir»**, deganda nechog'li haq edi, o'zbek mumtoz adabiyotining namoyandalaridan biri Yusuf Xos Hojib. Zero, millat, mamlakat ma'naviy taraqqiyoti oiladan boshlanar ekan, Prezidentning quyidagi fikri uni yana bir bor isbotlab beradi: **«...Oila sog'lom ekan-jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan-mamlakat barqarordir»¹.**

Haqiqatan, inson tarbiyasi, uning ma'naviy kamolati oilada tarkib topa boradi. Axir «Qush uyasida ko'rganini qiladi», deb bejiz aytishmaydi. Aynan oila muhitida paydo bo'ladigan ota–onaga hurmat, ularning oldidagi umrbod qarzdorlik burchini chuqur anglash, har qaysi insonga xos bo'lgan odamiylik fazilatlar va oilaviy munosabatlarning negizini, oilaning ma'naviy olami tashkil etadi. SHunday ekan, oiladagi muhitni yaxshilash, har tomonlama mustahkam oilalarni ko'paytirish oldimizda turgan muhim vazifa.

Ma'lumki, ota–bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilmu-ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti hamda millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan. Bugun oila bilan bir qatorda bola tarbiyasi va uning ma'naviy qiyofasiga mas'ullik bevosita **ta'lim-tarbiya**

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 58-b.

maskanlari zimmasidadir. Bu yerda ta'lim–tarbiyaviy, ma'naviy–ma'rifiy ishlar qanchalik puxta tashkil etilsa, bola ma'naviyatining tug'ri shakllanishiga shuncha katta ta'sir ko'rsatadi. Bugun **ustoz-murabbiylarga** qo'yilayotgan talab ham qat'iy: har bir bolaning chuqur bilim olishi bilan birga uning ma'naviy dunyoqarashini kengaytirish, dunyoda sodir bo'layotgan mafkuraviy jarayonlar, turli buzg'unchi g'oyalarning mazmun-mohiyatini yoshlar ongiga singdirish va ularning ongida buzg'unchi g'oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirish dolzarb vazifa. CHunki bugun bir bola tarbiyasiga nisbatan e'tiborsizlik ertaga bir necha yoshlarning buzg'unchi g'oyalar ta'siriga tushib qolishiga olib kelishi mumkin. SHu o'rinda I.A.Karimov aytganidek, bugun yoshlarimiz qanday qadriyatlar sari intilmoqda, qanday niyat, orzu, o'y–xayollar bilan yashamoqda, biz bunga aslo loqayd va befarq qaramasligimiz kerak. Ota – ona, ustoz, murabbiy, yetakchi–rahbar sifatida bu jarayonni chetdan turib kuzatib turishga xaqqimiz yo'q. O'zini haqiqiy pedagog, murabbiy–ustoz deb bilgan har bir ziyoli kishi ta'lim–tarbiya maskanida faoliyat yuritarkan, demakki, shu yerda tahsil olayotgan har bir bolaning tarbiyasida, ma'naviy olamining shakllanishida bevosita mas'uldir. **«Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar-yaxshilik va ezgulik, olijanob va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir»².**

Xalqimiz orasida o'zini bolalar tarbiyasiga bag'ishlagan, o'nlab ajoyib shogirdlar tarbiyalagan, o'zining yuksak ma'naviyati bilan el hurmatiga sazovor bo'lgan murabbiy–ustozlarimiz qancha. Ular tarbiyalagan shogirdlar mamlakatimiz taraqqiyotiga, xalqimizning ma'naviy kamolatiga xizmat qilmoqda. Ammo «guruch kurmaksiz bo'lmagani»dek, o'zini ziyoliman, deb yurib, turli buzg'unchiliklar bilan shug'ullanayotgan insonlar ham oramizda yo'q emas, albatta. Ustozning yoshlar tarbiyasi, ma'naviy qiyofasining shakllanishidagi o'rni alohida. Qachonki, ustozning o'zi o'z ishiga fidoyi, jonkuyar va u yuksak ma'naviyat egasi bo'lsa, uning tarbiyasini olgan yoshlar ma'naviyatida turli buzg'unchiliklarga o'rin olmaydi. Xalqimiz «Ustoz otangdek ulug'» deganida shogirdning o'z ustoziga hurmati bilan birga ustoz o'zining yuksak insoniy fazilatiga ega bo'lishini ham nazarda tutgan, desak xato qilmagan bo'lamiz.

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. 52-b.

1.2. Miliy qadriyatlar, diniy qadriyatlarning inson hayotidagi ahamiyati.

Xalqimizning madaniy-ma'naviy boyliklari va milliy qadriyatlarini to'la, oqilona egallash va rivojlantirish hozirgi avlodning vazifasidir. Gap o'tmish madaniy-ma'naviy boyliklariga ega bo'lishdagina emas, balki uni chuqur egallab, yangi yuksak bosqichga ko'tara bilishdadir.

Totalitar, ma'muriy buyruqbozlik boshqaruvi yillarida xalqimiz o'tmishiga hadeb tosh otish, uni butkul qoralash sobiq sovet mafkurasiga xos holat edi. Bu ashaddiy madaniyatsizlik va siyosiy kaltabinlik, odob-axloqsizlikdan boshqa narsa emas edi. Buni boshqacha ta'riflab ham, tavsiflab ham bo'lmaydi. Yurtboshimiz aytganlaridek, ba'zi bir bo'sh, siyosiy irodadan mahrum bo'lgan, o'z xalqi ornomusi, qadr-qimmatini va g'ururini himoya qilishga jur'at eta bilmagan mahalliy rahbarlar amal pillapoyasidan ko'tarilishga umidvor bo'lib, o'z ajdod-avlodlarining urf-odatlarini va ma'naviy qadriyatlarini mensimadilar. Xalqning urf-odatlarini, an'analari, madaniyatini obdon oyoq osti qilinishiga yo'l qo'yib berdilar va o'zlari bunga hattoki bosh-qosh ham bo'ldilar.

Milliy, madaniy-ma'naviy, axloqiy, tarixiy qadriyatlarga bo'lgan munosabat masalasida ham jiddiy xatoliklarga yo'l qo'yildi. O'zlarini ilmning hamma sohasini yakkayu yagona bilag'oni deb atagan kommunistik mafkura targ'ibotchilari o'z faoliyatlarida o'tmishdan qolgan barcha madaniy merosni butunlay inkor etish yo'liga o'tib oldilar. Navoiy, Bobur, Ulug'bek, Yassaviy, Mashrab, Nodirabegim singari ulug' insonlar feodalizm davri namoyondalari, deb e'lon qilinishi oqibatida, ularning meroslarini o'rganish, unga to'la, xolisanillo baho berish imkoniyati cheklandi. Milliy qadriyatlarimizga nisbatan bo'lgan bunday adolatsiz munosabat O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgunga qadar davom etdi.

Erishilgan mustaqillik xalqimiz madaniy-ma'naviy taraqqiyotiga keng yo'l ochib berdi. O'zbekistonda hozir madaniy merosimizga alohida e'tibor bilan qaralmoqda, juda ko'plab ilmiy, badiiy, tarixiy, falsafiy asarlar, qadimiy qo'lyozmalar ketma-ket nashr qilinmoqda. Noyob tarixiy yodgorliklarni saqlash va ta'mirlash ishlari ilk mustaqillik yillaridanoq boshlangan.

Xalqimiz dahosi bilan yaratilgan va g'ayriqonuniy ravishda respublikadan tashqariga olib ketilgan, milliy boylik bo'lgan san'at asarlarini, qimmatli qo'lyozmalarni izlab topish, O'zbekistonga qaytarish chora-tadbirlari ko'rilyapti. **“Noyob tarixiy yodgorliklarni saqlash va ta'mirlash, o'zbek xalqi yaratgan va milliy boylik bo'lgan san'at asarlarini izlab topish, ularni O'zbekistonga qaytarish ma'naviyat dasturimizning muhim bo'lagini tashkil etadi. Bu milliy**

boylik bizga ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan. Binobarin, biz ham uni ko'z qorachig'iday asrab-avaylashimiz va farzandlarimizga meros qilib qoldirishimiz kerak.

... Butun dunyoda bunday noyob boyliklar birinchi galda davlat muzeylari tomonidan sotib olinadi va saqlanadi. Biz ham xuddi shu yo'ldan borishimiz, buning uchun kerakli mablag'ni aslo ayamasligimiz darkor. Tengsiz milliy boyliklarimizning shuncha talon-toroj qilingani yetar, endi biz bunga aslo yo'l qo'ymaymiz"¹, deganda I.A.Karimov qanchalar haq edi.

Respublikamizda ilm-fan, madaniyat, xalq ta'limi, maorif, adabiyot va san'atni rivojlantirish, tarixiy obidalarni ta'mirlash, asliga keltirish, qariyb unutilayozgan xalq hunarmandchiligini tiklash masalalari bo'yicha Prezident farmonlari e'lon qilindi, bir necha qarorlar qabul qilindi va ularning ijrosi ta'minlanmoqda.

SHarq xalqlarining bir necha ming yillar mobaynida yaratgan shunday bebaho odob-axloq qoidalari, jahonga ko'z-ko'z qilsa arziydigan qadriyatlar borki, ularni unutish o'tgan ajdodlar xotirasi oldidagina emas, hozirgi va kelajak avlodlar nasl-nasablarimiz oldida ham kechirib bo'lmaydigan eng katta gunohi azimdir.

Odob-axloq, ta'lim-tarbiya sohasidagi qadriyatlarimiz bizlar uchun faqat milliy merosgina emas, balki insoniyat ma'naviy hayoti borasida katta o'rin olishi mumkin bo'lgan ma'naviy boylik hamdir. Ana shu milliy qadriyatlarimizni tiklash, ulardan to'la bahramand bo'lish, yosh avlodni ular bilan tanishtirish mustaqilligimizni mustahkamlashda, odamlarda insonparvarlik, vatanparvarlik singari fazilatlarni qoror toptirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Gap ma'naviy va axloqiy poklik, iymon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat, mehmondo'stlik, insonparvarlik va boshqa umuminsoniy hamda milliy qadriyatlar ustida bormoqda. Ular jamiyatimizning iqtisodiy taraqqiyoti, madaniy-ma'naviy kamoloti uchun nechog'lik muhim o'rin tutishini yetti yashardan yetmish yashargacha bo'lgan har bir inson biladi. Yurtboshimiz I. Karimov ta'biri bilan aytganda: **“Mustaqil O'zbekistonning kuch-qudrati manbai - xalqimizning umuminsoniy qadriyatlariga sodiqligidir. Xalqimiz adolat, tenglik, ahil qo'shnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab-asrab kelmoqda. O'zbekistonni yangilashning oliy maqsadi ana shu an'analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag'ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi**

¹ Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. – 3-jild. – T.: O'zbekiston, 1996. – 38-39-b.

va har bir kishini kamol toptirishga erishish uchun zarur shart-sharoit yaratishdir”¹.

O'zbek xalqida dunyo tan berib kelayotgan ajoyib insoniy fazilatlar, nodir urf-odatlar mavjud. Oila a'zolarining barchasi to'planmaguncha ovqat yemay turish, oila boshlig'ini odob saqlab kutish, ota-onani o'rnidan turib kutib olish, ularga har doim iltifot ko'rsatish, kattalarga hurmat, kichiklarga mehr-shafqat, ulug'-ajdodlarga, qo'ni-qo'shnilarga, xesh-aqrabolarga, mahalladoshlarga, tanish-bilishlardan yordamni ayamaslik va boshqalar bunga misol bo'la odi. Birovlar bilan muomalada odob-axloq qoidalariga qat'iy amal qilish, o'zidan kattalar, yoshi ulug'lar bilan hayo, odob-andisha asosida so'zlashish, ularga nojoiz so'zlarni aytmaslik, betgachoparlik qilmaslik, odob-axloq, andishani qo'ldan bermaslik - bularning hammasi xalqimizda chinakam lutfu nazokat hisoblanadi va yuksak darajada e'zozlanadi. O'zidan kattalarni, birinchi galda keksa bobolaru otalarni, nuroniy onalarni buvilarni hurmat qilish, e'zozlash, ular uchun qo'ldan kelgan yordamni ayamaslik o'zbek xalqining an'anaviy qoidasi bo'lib, ular o'zbek oilalarida yoshlikdan bolalar ongiga, qon-qoniga, vujud-vujudiga chuqur singdirib boriladi. Ota-bobolarimiz an'analarga ko'ra, yoshlar o'zidan kattalarni ko'rganda tanish-tanimasligidan, millati va jinsidan qat'i nazar salom berishlari, ro'baro' kelganda birinchi bo'lib yo'l berishi, ular bilan samimiy munosabatda bo'lishlari, iltifotlarini ayamasliklari lozim.

O'zbek oilalarida o'tadigan bironta ham marosim, to'y-tomosha, hashar keksalarning maslahatisiz va ishtirokisiz o'tmaydi. Keksalarning turmush tajribalari, bilim - boyliklari, bosib o'tgan yo'llari, yo'l-yo'riqlari, maslahatlari, saboqlari - yoshlar uchun eng katta boylik, bitmas-tuganmas xazinalar konidir. Keksasi, qarisi bo'lgan xonadonda fayz-baraka bo'ladi, degan mazmunda aytilgan qanchadan-qancha matallar, maqollar, afsonayu rivoyatlarimiz borligini ham aytib o'tish mumkin.

XI asrning atoqli shoiri, donishmandi va davlat arbobi Yusuf Xos Hojib qarilarni hurmat qilish, ular haqida behuda so'z aytmaslik, ular huzurida odob va kamtarlik bilan so'zlash joizligini uqtirgan edi.

O'zbek xalqining eng qadimiy davrlardan boshlab hozirga qadar davom etib kelayotgan, o'z ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan ajoyib qadriyatlaridan yana biri ota-onani yuksak darajada e'zozlash, izzat-ikromi, hurmatini joyiga qo'yishdan iboratdir. Farzand uchun dunyoda ota-onadan ko'ra mehribon, aziz va mo'tabar zot yo'q. Ota-ona farzandning suyanchig'i, bitmas-tuganmas boyligidir.

¹ Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. – 1-jild. – T.: O'zbekiston, 1996. – 77-b.

Hech ikkilanmasdan shuni aytish kerakki, ota-ona farzand uchun hech narsani ayamaydi. Ularning tabiat ato etgan buyukliklari ham ana shunda. O'zbek xalqi odob-axloq qoidasi bo'yicha, keksalarning, ota-onaning oldidan salom bermasdan o'tish gunoh hisoblangan.

SHunday ekan, ota-onani qadrlash, ularning beminnat xizmatini unutmaslik, duolarini olish - bolalarning farzandlik burchi. Bu milliy qadriyatlarimizning eng muhim talabalaridan biridir.

Buyuk bobolarimiz aytganidek, ota-ona uchun xizmat qilmoq farzandlar uchun majburiyatdir: **“ Ota-ona ikkisiga xizmatni birdek qil, xizmating qancha ortiq bo'lsa ham kam deb bil. Otang oldida boshingni fido qilib, onang boshi uchun butun jismingni sadaqa qilsang arziydi! Ikki dunyong obod bo'lishini istasang, shu ikki odamning roziligini ol! Tunu kuningga nur berib turgan-birisini oy deb bil, ikkinchisini quyosh. Ularning so'zlaridan tashqari bir narsa yozma, ular chizgan chiziqdan tashqariga bir qadam ham bosma. Hamma xizmatni sen odob bilan bajar, “adab” so'zidagi “dol” kabi qomatingni ham qil”¹.**

Tan olib shuni aytishimiz kerakki, keyingi paytlarda keksalarni, ota-onalarni hurmat qilish zarurligi haqidagi milliy qadriyatlarimiz biroz xira torta boshlagandek tuyuladi. Ba'zi yoshlarda kattalarni hurmat qilish, ularning gapiga quloq solish singari yuksak ma'naviy fazilatlar yo'qolib ketayotgandek. Ehtimol, boshqa millat vakillari bunga unchalik e'tibor berishmas, lekin biz o'zbeklar buni his qilmay ilojimiz yo'q. Keksalar uchun ajratilgan “Qariyalar uylari”da farzandlari tirik ota-onalar yashayotganligi achinarli holdir. Goh-gohida bo'lsa-da, o'z ota-onasiga qo'l ko'targan, undan ham og'irroq jinoyat sodir etgan farzandlar haqida matbuot sahifalarida o'qib, o'ylanib qolasan kishi. Bu - oddiy bir nuqson emas, balki inson uchun ma'naviy tubanlik, bag'ritoshlik, ko'rnamaklikdir, ajdodlarimiz o'gitlarini nazar-pisand qilmaslik, oyoq osti qilishdir. Bunday holatlarni ko'rib, milliy, axloqiy qadriyatlarimizga, o'zbek xalqining sha'niga dog' tushiradigan bunday yaramas hodisalar qaerdan kelib chiqdi, ularning asosiy sababi, ildizi nimadan iborat, degan savol har bir ma'naviyatli insonni o'ylantirishi tabiiy. SHuni aniq aytish kerakki, taraqqiyotning muayyan bosqichida, sobiq Ittifoq davrida ayrim yoshlar o'zbek xalqining milliy qadriyatlarini chuqur o'rganish, tahlil etish, mohiyatini to'la anglab yetishdan butkul mahrum bo'lib qoldilar. Ajdod-avlodlarimizning o'gitlari, pand-nasihatlari, eng ajoyib an'analarimiz, milliy qadriyatlarimiz tinmay targ'ib-tashviqot qilinishi, odamlar

¹ Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 1974. – 55-b.

ongi va turmushiga singdirilishi o'rniga nuqul qoralandi, yomon otliq qilindi, bid'at, xurofot, deb baholandi. Milliy qadriyatlarimizning serma'no, serhikmat g'oyalarini o'zida jo qilgan va targ'ib-tashviq qiladigan o'zbek xalq rivoyatlari, ertaklari, dostonlari, maqol va matallari, aruz va baytlari, kuy va qo'shiqlariga unchalik e'tibor berilmadi, ular sinchiklab o'rganilmadi. Bularning o'rniga Yevropa va boshqa xalqlarning madaniy-ma'naviy meroslariga ruju qilindi. O'nlab yillar davomida biz ta'lim-tarbiya borasida Yevropa, Rossiya modelini ko'klarga ko'tarib maqtab, targ'ib qilib, yoshlarimizni o'z milliy qadriyatimizdan bebahra qilib qo'ydik. Ana shu kasofatlar tufayli diniy, axloqiy, madaniy-ma'naviy qadriyatlarimizning, oila, maktab, mahalla-ko'y, qo'ni-qo'shnilar ta'lim-tarbiyasining hayot sinovidan o'tgan bebaho boyliklaridan judo bo'la boshladik, bora-bora ularni unuttik va bugun xalqimiz orasida turli illatlarga duch kelib turibmiz.

Milliy qadriyatlarimizning mohiyatiga zid bo'lgan bunday salbiy hodisalarning uzoq davom etishiga ortiqcha chidash, sabr-toqat qilish mumkin emas edi. Mustaqilligimiz tufayli bularga chek qo'yildi. Mustaqilligimiz ta'lim-tarbiya, odob-axloq masalalarida ham tub burilish davrini boshlab berdi. Milliy an'analar, milliy madaniyat, milliy qadriyatlar o'zining qaddini rostlay boshladi.

Kattalarga izzat-ikrom, kichiklarga mehr-shafqat, ota-onaga e'zoz, farzandlarga mehr-sadoqat - bular insonni inson sifatida ulug'laydigan, axloqiy, ma'naviy jihatdan go'zal va barkamol qiladigan qadriyatlardan hisoblanadi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining asosiy qonuni-Konstitutsiyasida farzandlarning jamiyat, oila hamda ota-onalari oldidagi insoniy burchlari va mas'uliyatlari nimalardan iboratligi milliy qadriyatlarimizdagi asosiy g'oya va qoidalarga asoslanib belgilab berilgan. Uning 66-moddasida qayd qilinishicha, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amg'o'rlik qilishga majburdirlar¹.

Mustaqilligimizning poydevorini mustahkamlashda jamiyat a'zolari madaniy-ma'naviy, axloqiy kamolotini oqilona yo'lga qo'yish, ma'rifiy tadbirlarni muntazam amalga oshirish benihoya katta ahamiyatga ega. Agar inson to'g'ri tarbiya topmasa, uning faoliyati jamiyat uchun zararli bo'ladi. Jamiyat hayotidagi barcha muammolar yechimi ma'naviy jihatdan barkamol bo'lgan kishilarning fidokorona, halol mehnati, halol va pokligi asosida ro'yobga chiqadi. **“Ma'naviyat tarbiyaning eng ta'sirchan quroli ekan, undan oqilona foydalanish, bolalarimizni vatanparvarlik, rostgo'ylik, haqsevarlikka o'rgatish kerak**

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2010. – 13-b.

bo'ladi. Aslini olganda, axloq-ma'naviyatning o'zagi. Inson axloqi shunchaki salom-alik, xush muomaladagina iborat emas. Axloq-bu avvalo insof va adolat tuyg'usi, iymon, halollik degani”².

Hozirgi paytda taraqqiyotimiz taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. Aqliy zakovat, ruhiy, ma'naviy kamolot, insofu diyonat, muruvvat, mehr-oqibat - bular ma'rifatli, ma'naviyatli insonning asosiy fazilatlaridir.

Milliy qadriyatlar ustida fikr yuritganda yana bir muhim masalani alohida ta'kidlashga to'g'ri keladi. Ma'lumki, qadimiy urf-odatimizga ko'ra, o'zbek oilalarida, ayniqsa, ko'p bolali xonadonlarda yoshlar bolaligidanoq mehnat quchog'ida tarbiyalanadi, mehnatda chiniqadi. Dalada, uy-joyda ota-onaga yordam berib, mehnat qilib, hali hech bir bola mayib bo'lgan emas. Aksincha, mehnat qilgan bola chiniqqan, oq-qorani tanigan, ota-onasining qadriga yetgan. Mehnat qilib murakkab hayot yo'lida uchrashi mumkin bo'lgan har qanday to'siq va qiyinchiliklarni sabr-toqat bilan yengib o'tishga o'rgangan.

Afsuski, o'tgan sobiq sovetlar davrida xalqimizning ana shu muhim an'analari ba'zan e'tibordan chetda qola boshladi, yoshlarning mehnatsevarlik xislatlarini shakllantirish masalasiga rasmiyatchilik bilan qaraldi. SHahar va qishloqdagi maktab o'quvchilarini kasb-hunarga o'rgatish masalasiga birmuncha sovuqqonlik bilan qaraldi.

Prezident tomonidan qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga binoan, respublikamizda turli mutaxassislik bo'yicha 297 yo'nalishdagi kasb-hunar kollejlari tashkil etildi. Xalqimiz orasida boy tajribalar to'plangan kasb-hunar sirlarini o'rganish, ta'lim-tarbiyada milliy qadriyatlarni shakllantirish va rivojlantirish asosiy o'rin tutadigan bo'ldi. Tariximiz, madaniyatimiz, milliy urf-odatlarimizga e'tibor kuchaydi. Yoshlarda milliy g'ururni shakllantirish va mustahkamlashga alohida ahamiyat beriladigan bo'lganligi tahsinga sazovordir.

“Bundan 12 yil oldin boshlangan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va 2004 yilda uning tarkibiy qismi sifatida qabul qilingan maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy davlat dasturi ijtimoiy hayotimizda tub burilish yasadi, - degan edi Prezident Islom Karimov O'zbekiston Konstitutsiyasining 17 yilligiga bag'ishlangan ma'ruzasida, bu dasturlar doirasida yurtimizda ming-minglab litsey va kollejlari, maktablar qurish va ularni rekonstruksiya qilish, eng yuksak talablar asosida jihozlashdek keng ko'lamli vazifani qo'yganimizda, bu ishlarning qanday ulkan, aytish mumkinki, beqiyos maqsadlarni ko'zda tutishini kamdan-kam odam

² Karimov I.A. O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. – T.: O'zbekiston, 2009. – 19-20-b.

o'ziga tasavvur qilardi... Birgina 2009 yilda barpo etilgan 214 ta akademik litsey va kasb-hunar kollejining 170 tasi qishloq tumanlarimizda bunyod etilgani va rekonstruktsiya qilinganini ta'kidlash lozim"¹.

Jamiyatda har kim o'ziga munosib o'rin egallashi va hayot kechirishining mezonlari hozir tamomila boshqachadir. Bundan buyon insonning jamiyatdagi o'rnini, istiqboli va kelajagini faqat uning bilimigina emas, balki aql-idroki, ishbilarmonligi va uddaburonligi, mehnat malakalari ham belgilaydi.

Respublikamiz bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tayotgan hozirgi sharoitda oiladagi, maktablar, barcha bilim va tarbiya muassasalaridagi mehnat tarbiyasining ahamiyati ayniqsa katta. Mustaqil O'zbekiston uchun haqiqiy mehnatsevar, malakali, ishbilarmon, ko'plab insonlar Respublikamizning yanada rivojlanishiga munosib hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

Insonning o'zi va o'z oilasining baxt-saodati yo'lida mehnat qilishga shaxsan tayyor ekanligi uning ichki imkoniyatlarini tashkil etadi.

Bilimni sevish va ardoqlash, olimu fuzalolarni, ustozlarni hurmat qilish, mardlik, odamiylik, kamtarlik, adolat, halollik va haqgo'ylik kabi insoniy fazilatlarni ulug'lash borasida ham boshqalar ibrat olishi mumkin bo'lgan ajoyib qadriyatlarimiz ham benihoya ko'p. SHulardan yana ba'zi birlari ustida to'xtalishni lozim topdik.

Milliy qadriyatlarimizda **bilim va bilimdonlik** juda ulug'lanadi. Bilim va zakovatning qadr-qimmati, jamiyat taraqqiyoti, shaxsning madaniy-ma'naviy, axloqiy kamoloti uchun ahamiyati haqida qanchadan-qancha kitoblar bitilganini, rivoyatlar aytilganini, maqollar to'qilganini hammamiz juda yaxshi bilamiz. Bilim eng katta boylik ekanligi, dunyoda undan qadrliroq narsa yo'qligi to'g'risida Nizomulmulkning "Siyosatnoma", Nosir Xisravning "Saodatnoma", "Ro'shnoma", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilik", Ahmad Yugnakiyning "Hibatul haqoyiq", Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat", Alisher Navoiyning "Xamsa" kabi mashhur asarlarida bir-biridan muhim, bir-biridan sermazmun fikrlar bayon etilgan.

Bizning madaniyatimiz va tariximizda insonni ilm asoslarini bilib olishga da'vat etmagan, bilimning xosiyati haqida kuyib-yonib so'zlamagan bironta shoir va yozuvchi, bironta olim bo'lmagan. Buning uchun loaqal Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning, Abu Nasr Forobiyning, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy,

¹ Karimov I.A. O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. – T.: O'zbekiston, 2009. – 19-20-b.

Abu Ali ibn Sinoning muborak nomlarini eslashning o'zi kifoya qiladi. Ularning qalamlariga mansub bo'lgan asarlarning har biri insoniyat uchun mislsiz boylik, bitmas-tuganmas xazinalar konidir.

O'zlarining aql-idroklari, tafakkur quvvati, zehn-zakovati, buyuk kashfiyotlari, ilm-fani bilan dunyoni hozirgacha lol qoldirib kelayotgan buyuk mutafakkirlari, fuzaloyu ulamolari benihoya ko'pligi bilan o'zbek xalqi har qancha faxrlansa, iftixor qilsa, boshini baland ko'tarib g'ururlanib yursa arziydi! O'zbeklar nasl-nasabi, o'tmishi nihoyatda ulug' va baquvvat, ildizi juda chuqur, qadimiy xalqlardan biridir. Biz tarix maydonida kuni kecha paydo bo'lgan xalq emasmiz.

Ilm-fanga o'chlik, ma'rifat tomon talpinish, madaniyatga tashnalik, odob-axloq qoidalarini chuqur o'zlashtirib hayotga tatbiq etishga intilish, kitob mutolaasini hech qachon kanda qilmaslik, zehni o'tkirlab, fikrini boyitib, tafakkur quvvatini oshirishga doimo shay turish - bularning hammasi o'zbek xalqiga ajdodlaridan o'tib kelayotgan buyuk an'ana, ajoyib meros bo'lib, uning qon-qoniga chuqur singib ketgan.

Insonni kamtar, sermulozamat, vazmin, og'ir-bosiq qilib ko'rsatadigan fazilat va xislatlar kishining bilimidan kelib chiqadi. Buni bizning ajdodlarimiz orasida o'tgan ulug' va dono kishilar, shoir va faylasuflar ham ko'p ta'kidlab o'tganlar. XII asrning iste'dodli shoiri va donishmand murabbiysi Ahmad Yugnakiyning "Hibbatul haqoyiq" ("Haqiqatlar armug'oni") asarida ilmli bilan ilmsizni, olim bilan johilni qiyoslab, bayon etgan quyidagi fikri bunga misol bo'la odi: **"Bilim to'g'risida so'zlamodaman, so'zimni yaxshi tingla, bilimdon kishilarga o'zingni bog'la. Bilim bilan baxt-saodat yo'llari o'rganiladi, bilim egallab, saodat yo'lini top. Bilimli kishi qimmatli oltindir. Johil, bilimsiz kishilar arziyas qalbaki aqchadir. Bilimli bilan bilimsiz qachon teng bo'ladi? Bilimli ayol marddir, bilimsiz er zaifdir. Suyakka ilik, er kishiga ilm kerak. Erning ko'rki aql, suyakning ko'rki ilikdir. Iliksiz suyak bo'sh-quruqdir, iliksiz suyakka esa qo'l uzatmaydilar. Er kishi bilim o'rganib, bilguvchi bo'lib qoladi, bilimsiz er kishi tiriklikda ko'rguliklar ichida qoladi. Bilimli er o'lsa ham tirikdir"**¹. Ya'ni, bilim egasi vafot etganda ham uning nomi boqiy qoladi. Bilimsiz kishi tirikligida ham o'likdan farqi yo'qdir. Ahmad Yugnakiyning bu mulohazalari, hozirgi davrimiz uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Ilmu ma'rifatning inson qadr-qimmatini va izzat-e'tiborini oshirishdagi ahamiyati Qaykovusning "Qobusnoma"sida, Yusuf Xos Hojibning "Kutadg'u

¹ Buyuk siymolar, allomalar. – T.: Abdulla Qodiriy nomli xalq merosi nashriyoti, 1995. – 23-b.

bilig“ (“Baxt keltiruvchi bilimlar”) nomli asarlarida ham o‘zining chuqur ifodasini topganligini qayd qilib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Ana shu yerda ulug‘ bobomiz Alisher Navoyining “Mahbub ul-qulub” asaridagi kamtarlik-tavoze haqidagi fikrlarini keltirib o‘tish joizdir: **“Tavoze - do‘stlik gulshanida toza gullar ochadi va chamandan oshnolik va ulfatchilik bazmiga xilma-xil gullar sochadi. Tavoze - takabbur muxolifga muloyimlik va kamchilik yo‘lini ko‘rsatadi. Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha xalqlar uchun yoqimlidir. U mansabdor kishilardan go‘zalroq va badavlat odamlardan hurmatliroqdir. Odobli odam o‘z tengdoshlari orasida ham tahsinga loyiq. Hech qanday ehson bermay kattadan-kichik, hammani shod qiladi. Hech qanday hadya qilmay, kishilarning g‘amini tarqatadi... Tavoze va odob egallariga hamma ta‘zim qiladi va hurmat bildiradi”**².

“Makorimul-axloq” kitobining muallifi, tarixchi Xonadamir **“Boshingga takabburlik havosini keltirma. Chunki takabburlik bilan hech kim biror joyga yetgan emas. Go‘zallar zulfi kabi shikastalikni odat qil, bu bilan har nafasda minglab ko‘ngilni ovlaysan ”**, deydi.

Mustaqillikning ma‘naviy zaminlarini mustahkamlashda diniy qadriyatlardan, ayniqsa, odob, axloq borasida islom dini ta‘limotidan oqilona, ijodiy foydalanish maqsadga muvofiqdir. Islom dinida nafaqat milliy, balki umuminsoniy ahamiyatga ega bo‘lgan, hozirgi paytda ham o‘z qimmatini to‘la saqlab kelayotgan eng muhim axloqiy qoidalar, falsafiy fikr-mulohazalar behisob. Islom odamlarni dinidan, millatidan qat‘i nazar o‘zaro hurmat izzatda bo‘lishga, bir-birlarlarini doimo qo‘llab-quvvatlashga undaydi.

Islom dinining jamiyat ma‘naviy hayotini yuksaltirishda, insonning ma‘naviy kamolotida tutgan o‘rni haqida gapirib, Prezident I.A.Karimov shunday fikrlarni bildirib o‘tadi. “Barchamizga yaxshi ma‘lumki, din azaldan inson ma‘naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzotning yuksak ideallari, haq va haqiqat, insof va adolat to‘g‘risidagi orzu-armonlarini o‘zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar mustahkamlab kelayotgan g‘oya va qarashlarning yaxlit bir tizimidir”¹.

Sobiq sovet hokimiyati yillarida islom dinining kuchayishi pirovardida islom millatchiligi kuchayishiga olib keladi, ijtimoiy zaminga ega bo‘lgan islom millatchiligi aholini rus xalqiga, sovet siyosiy tuzumiga qarshi kurasha oladigan va uni larzaga keltiradigan kuchga aylantirishi mumkin, degan hadiksirash va bahonalar bilan milliy va diniy qadriyatlarimizga qarshi kurash avj oldirib

² Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – T., 1983. – 47-48-b.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma‘naviyat, 2008. – 36-b

yuborildi. Din, shu jumladan, islom dini xalq uchun afyun, deb qoralandi. Islom dini, tabiat, jamiyat, inson tafakkuri to'g'risidagi ilmiy dalillarga butunlay zid bo'lib, mazlumlar ongini zaharlaydi, deb kelindi. Hamma joyda va har doim, diniy normalar, qoidalar, dasturlar erkin fikr yuritishga yo'l qo'ymaydi, ijtimoiy va shaxsiy hayot taraqqiyotiga to'sqinlik qiladi, ularni diniy yo'l bilan cheklab qo'yadi, degan g'oya zo'r berib yoyildi. Qur'oni Karim va Hadisi sharif singari muqaddas kitoblar ta'qib ostiga olinib, qatag'on qilindi. Odamlarni ana shu qadriyatlardan mahrum etishdi.

O'zbekistondagi barcha dinlarning, birinchi navbatda, islom dinining ko'zga ko'ringan yirik vakillari birin-ketin qamaldi, surgun qilindi, imi-jimida yo'q qilinib, otib tashlandi. Siyosiy ta'qib va tazyiqlardan nasroniy va yahudiy dinlariga qaraganda ham islom dini kuchliroq talafot ko'rdi. Din peshvolari, ruhoniylar juda ko'plab imtiyozlardan mahrum qilindi, mol-mulklari tortib olindi, ijtimoiy, siyosiy, tarbiyaviy, ma'rifiy ishlardan butunlay chetlatildi.

CHorak kam bir asr davomida diniy-ma'naviy tarbiyaga o'rin berilmadi. Diniy tarbiya tor doirada, faqat masjidlardagina qisman amalga oshirildi. Diniy axloq va madaniyatning zarari haqida aytmagan gap qolmadi, milliy udum va an'analar, milliy qadriyatlar kamsitildi, eng muhim insoniy munosabatlar obro'siga putur yetkazildi.

Dahshatlisi shu bo'ldiki, islom dinini "fosh etish" maqsadida aziz-avliyolarning mozorlariga o't qo'yildi, maqbaralari ostin-ustun qilindi. Kommunistlar, rahbar xodimlar ota-onalari, qavm-qarindoshlari janozasiga borishdan qo'rqib qolishdi. Yurak yutib borganlari esa partiyadan o'chirilib, ishdan olindi.

"Madaniy inqilob" davrida "xudosizlar jamiyati" tuzilib, unga minglab odamlar a'zo bo'lishgan. O'sha "faollar" odamlarni go'yo diniy sarqitlardan ozod qilish va dahriylik ruhida tarbiyalash bahonasida qari-qartanglar, xotin-qizlar, mullalar, eshonlarning nafsoniyatlariga shu qadar qattiq tegishgan, insoniy sha'ni, milliy, diniy, axloqiy qadriyatlarini toptaganlarki, buni tarix unutmaydi.

Xalq o'rtasida dahriylikni targ'ib qilish va dinga qarshi murosasiz kurashish niqobi ostida o'rta asr me'morchiligining takrorlanmas namunasi bo'lgan minglab masjidlar, yuzlab madrasalar, xalqimizning milliy g'ururi hisoblangan muhtasham qasrlar, tarixiy obidalar, xonlar, amirlar saroylarining bir qismi ko'z ko'rib, quloq eshitmagan darajada vahshiylik va yovuzlik bilan buzib tashlanib, bir qismi omborxonalariga, paxta quritadigan joylarga, dorixonayu otxonalarga aylantirildi.

XX asr boshida birgina Toshkent shahrining o'zida 349 ta masjid va 17 ta madrasa bo'lgan. Hozir ulardan ayrimlarigina saqlanib qolgan, xolos.

Bular kamlik qilganidek, necha-necha asrlardan beri avlodlarimiz tomonidan ko'z qorachig'idek, avaylab-asrab kelingan, xalqimiz turmush tarzining tarkibiy qismiga aylanib ketgan haqiqiy xalqchil urf-odatlar, xalq marosimlari va bayramlari, turli sayillar so'rab-surishtirib o'tirmay taqiqlab qo'yildi. Diniy nikoh va beshik to'ylari, hosil bayrami, qovun sayli, gul sayli, gap-gashtaklar, ko'pkari, kelin salomlar, qizlar bazmi va hattoki, milliy libos kiyib yurish "eskilik sarqiti"ga chiqarildi. Ko'klamda sumalak pishirish, bolalarni sunnat to'yi qilish, aqiqa kabi boshqa marosimlarni o'tkazish qoralandi. "Navro'z" bayrami diniy marosim sifatida ta'qiqlandi. Holbuki, uning hech qanday diniy marosimga aloqasi yo'q edi. Axir u xalqning islomdan ancha ilgari mavjud bo'lgan ajoyib udumi-ku?

Sobiq SSSR o'zini butun dunyoga dahriylar mamlakati, deb e'lon qildi. Dinsizlik yuqumli kasallikday hamma joyga yoyildi. Odamlar sekin-asta dindan, diniy iymon-e'tiqoddan yiroqlasha boshladi. Islom diniga qarshi uzoq yillar davomida olib borilgan ko'r-ko'rona, bir yoqlama kurashdan, g'ayriilmiy, g'ayriinsoniy xatti-harakatlardan xalqimiz va madaniyatimiz behad zarar ko'rdi, odamlarning dili ranjidi, ko'ngli o'ksidi. Holbuki, islom dinining har bir oyati va surasida insoniyat manfaatiga xizmat qiladigan qimmatli o'gitlar, yo'l-yo'riqlarni istagancha topish mumkin edi. Hadisi sharifda, kimki musulmon mamlakatida yashovchi boshqa dinga mansub kishini xaqorat qilsa, qiyomat kuni yasalgan qamchi bilan uriladi, deyiladi. Ta'kidlanishicha, mo'min mo'minning ko'zgidir, ularning hammasi bir-birlariga birodar, biri ikkinchisidan ortiq, kam emas. Mo'min-musulmonlar hamma sohada bir-biriga o'zaro yordamlashadi, mol-dunyosi va obro'sini himoya qiladi, birining kamchilik va nuqsonini boshqasi tuzatadi. Mo'min mo'minning molu joniga tajovuz qilmaydi.

Islomda mamlakatlararo mojarolar, qonli to'qnashuvlar qattiq qoralanadi. Tabiatga mehr-muhabbat, tevarak-atrofni, suvni, havoni, tuproqni, hayvonotu nabototni asrab-avaylash islomning eng asosiy g'oyalaridan biridir. Biz yashayotgan zamindagi, yer yuzidagi barcha noz-ne'matning qadriga yetish insonning burchi. Tabiiy ne'matlarni e'zozlash ularni avaylab-asrash, isrof qilmaslik asosida amalga oshadi. "Qur'on" oyatlarida, Payg'ambarimiz Hadislarida hayvonot olami, nabotot olami va atrofimizni o'rab turgan boshqa barcha narsalarni to'la-to'kis himoya qilish, saqlash, ularni buzmaslik, isrof qilmaslik to'g'risida ta'limotlar borki, ularning ma'nosi bilan tanishib, bu ta'limotlar go'yo, hozirgi kunimizni ko'zlab aytilgandek tuyuladi.

II.BOB. MILLIY TIKLANISHDA UMUMBASHARIY QADRIYATLAR.

2.1. Mahalla- milliy qadriyatlar maskani.

Xalqimizning ko'hna va boy tarixiga nazar tashlasak, Yurtboshimizning quyidagi so'zlari qanchalik asosli ekaniga ko'p bora guvoh bo'lamiz:

«Azaldan o'zbek mahallasi chinakam milliy qadriyatlar maskani bo'lib keladi. O'zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj kimsalar holidan xabar olish, yetim-esirlarning boshini silash, to'y-tomosh, hashar va ma'rakalarni ko'pchilik bilan bamaslahat o'tkazish, yaxshi kunda ham, yomon kunda ham birga bo'lish kabi xalqimizga xos urf-odat va an'analar avvalambor mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan».

Mustaqillik yillarida esa mahallaning bu azaliy xususiyatlari qatoriga ko'plab yangi va mas'uliyatli vazifalar kelib qo'shildi. CHunonchi, mahallaning huquq va vakolatlari doirasi sezilarli kengaytirildi. U o'zini o'zi boshqarishning g'oyat xalqona, tabiiy tizimi sifatida jamiyat hayotini tashkil etishda tobora faol ishtirok etmoqda. Uning bu ishtiroki ham qonuniy, huquqiy asosga ega bo'ldi. **«Davlatchiligimiz tarixida birinchi marta «mahalla» tushunchasi Konstitutsiyamizga kiritilib, uning jamiyat boshqaruvidagi o'rni va maqomi qat'iy belgilab qo'yildi».**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasida: «SHaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi.

O'zini o'zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi», – degan norma mustahkamlangan bo'lib, bu huquqiy maqom bilan mahalla tizimi jamiyatimiz hayotini boshqarishda o'zining mas'uliyatli o'rni va ahamiyatiga ega bo'ldi.

Avvalo, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 12-sentabrdagi Farmoniga ko'ra, yurtimizda «Mahalla» xayriya jamg'armasi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 17-oktabrdagi «Respublika «Mahalla» xayriya jamg'armasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida»gi qarori, Oliy Majlisning 1993-yil 2-sentabr va 1999-yil 14-apreldagi sessiyasida yangi tahrirda qabul qilingan «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonuni mahallaning Konstitutsiyada belgilangan maqomini yanada mustahkamlaydigan huquqiy asoslar bo'ldi.

O'z faoliyatini mana shunday qonuniy negizda olib borayotgan bugungi mahalla fuqarolar yig'inlari joylashgan shinam binolarga, ular atrofida bunyod etilgan so'lim go'shalarga, militsiya tayanch punktlari, bolalar sport

maydonchalariga bir nazar tashlang. Bugun mahalla-ko'ya o'tkaziladigan barcha katta-kichik tadbirlar mahalla oqsoqollari, maslahatchilar bilan bahamjihat, o'zaro ko'mak asosida tashkil qilinadi. Mahalla hududini obod qilish, ko'chalarni tekislash, asfalt yotqizish, yoritish, ariq-zovurlarni tozalash, uylar, daraxtlar, gul va butalarni tartibga keltirish singari barcha ishlar ustida shu fidoyi insonlar boshqosh. Ayni hududda yashovchi har bir fuqaro – ish joyi, lavozimi, yoshi, millati va dinidan qat'i nazar – shu maskanni o'zining mo'jaz vatani, barcha shodlik va quvonchlariga guvoh aziz go'sha sifatida ardoqlaydi, asraydi. Endi tasavvur qiling, aziz o'quvchi, agar butun mamlakatimizdagi barcha mahallalarda mana shunday fidokorona mehnat qilinsa, har bir mahalla hududi obod etilsa, Vatanimiz qanchalar go'zallashadi, qanchalar tarovatga ega bo'ladi. Eng muhimi, agar barcha mahallalarda, uning tarkibidagi xonadonlarda tinchlik-xotirjamlik hukmron bo'lsa, odamlar o'rtasida o'zaro mehr-oqibat, mehr-shafqat tuyg'ulari ustuvor holatga kelsa, bu diyorning baxt-u iqboli qanchalar ochiladi.

SHu tufayli ham Prezidentimiz mahallalardagi ma'naviy muhit sog'lomligi mamlakat hayotida qanchalik muhim rol o'ynashini shunday ta'kidlaydi: **«Biz har qaysi xonadon, butun el-yurtimizdagi ma'naviy iqlim va vaziyatni anglamoqchi bolsak, bu boradagi haqiqiy manzaraning yorqin ifodasini avvalo mahalla hayotida xuddi oynadek yaqqol ko'rish imkoniga ega bolamiz».**

Darhaqiqat, biz uchun oilamiz ko'z ochib ko'rgan dargoh bo'lsa, mahallamiz muqaddas Vatanimiz ichidagi mo'jaz vatandir. Aytganimizdek, mahalla oilalardan tashkil topadi. Farzandlar oila bag'rida kamol topgani kabi oila ham mahalla ko'z oldida barpo bo'ladi, uning ichida ravnaq topadi. SHu tufayli ham mahalla oilaning eng yaqin maslahatchisidir.

Keyingi yillarda mahallalarimiz kam ta'minlangan, ko'p bolali oilalar, yolg'iz keksalar, nogironlar, yetim-esirlar, boquvchisini yo'qotgan oilalarni ijtimoiy muhofaza qilishning asosiy kuchi bo'lib qoldi. Bu maqsadlar uchun davlat budjetidan ajratiladigan juda katta mablag' mahalla ixtiyoriga berilishi, uning adolatli taqsimlanishi borasida mahallaga ishonch bildirilishi ham uning obro'sini va mas'uliyatini yanada oshirdi. Uning mavqeyi va e'tibori yuksalishida 2003-yilning mamlakatimizda «Obod mahalla yili» deb e'lon qilinishi alohida muhim rol o'ynadi. Har yili Navro'z va Mustaqillik bayramlari arafasida tashkil qilinadigan umumxalq hasharidan tushadigan milliardlab mablag'lar ham Respublika «Mahalla» jamg'armasi, uning viloyat va tuman bo'limlari hisobiga o'tkazilib, mazkur mablag'lar kam ta'minlangan, ijtimoiy muhofazaga muhtoj aholi qatlamlariga, «Mehribonlik», «Muruvvat» va «Saxovat» uylariga yo'naltiriladi. SHuningdek, oilada ma'naviy-axloqiy muhitni sog'lomlashtirish, madaniy turmush darajasini oshirish, barkamol avlodni shakllantirish maqsadida respublikamizdagi barcha mahalla oqsoqollarining diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy masalalar bo'yicha maslahatchilari lavozimi joriy etildi. Bu degani qariyb o'n ming nafar ma'rifatli, hayot tajribasi boy opalarimiz va onalarimiz oilalarga

ma'rifat nurini, yuksak ma'naviy qadriyatlarni muntazam olib kirish imkoniyatiga ega bo'ldi, deganidir.

Bugungi kunda mahalla fuqarolar yig'inlari huzuridagi mutasaddi kengashlar rahbarligida uning hududida jamoat tartibini saqlash, yoshlar va o'smirlar o'rtasida huquqbuzarlikning oldini olish, voyaga yetmaganlarning huquqlarini muhofaza qilish, yoshlarni harbiy xizmatni o'tashga jismoniy va ma'naviy jihatdan tayyorlash vazifalari muvaffaqiyatli hal etilyapti.

Mahallada to'ylar, bayramlar, motam marosimlarini o'tkazish bilan bog'liq tashkiliy ishlarni amalga oshirish, ularni isrofgarchiliksiz, ortiqcha xarajatlarsiz ixcham o'tkazish, albatta, mahalla oqsoqoli va mahalla faollariga bog'liq. Qolaversa, mahallada o'tayotgan har bir tantana yoki marosim uchun mahalla ahlining katta-yu kichigi birday mas'uldir. Bunday tadbirlarda ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, har bir fuqaroga bir xil hurmat-ehtirom ko'rsatiladi. Chunki mahalla kimning qaerda ishlashi, qancha pul topishiga qarab emas, balki kim qanday inson ekani, yashayotgan joyiga qanday yordam berib, uning obro'siga nima qo'shgani bilan hisoblashadi, shunga ko'ra odamga baho beradi.

Mahalla, ta'kidlanganidek, oila tinch-totuvligini, jipsligini mustahkamlaydigan joy. Tabiiyki, oilada ba'zi arzimagan narsa tufayli janjal chiqishi va bu haqda er yoki xotin mahalla fuqarolar yig'iniga murojaat etishi mumkin. Bunday holatda mahalla kattalari vazmin, chuqur mushohada yuritib, ularni iloji boricha yarashtirish yo'lidan borishadi. Bu bilan uydagi janjal hamma yoqqa ovoza bo'lishining, keyingi xijolatgarchiliklarning oldi olinadi. Eng muhimi esa – farzandlarga muqaddas oshyon bo'lgan oila asrab qolinadi.

Yurtimizdagi ko'pgina mahallalarning yoshlari kechqurunlari tinch, osuda, o'zaro hurmat bilan foydali suhbat qurayotganliklarini ko'rib, qalbing quvonchga to'ladi. Bunday ahillik va madaniyatlilik mahalla faollari ma'naviy-axloqiy tarbiyasining natijasi, shu mahallaning ko'rki va ziynatidir.

2.2. Milliy taraqqiyotda umumbashariy qadriyatlarning o'rni.

Komil insonni, barkamol shaxsni tarbiyalashning muhim vositalaridan ta'lim – tarbiya, fan, madaniyat va ma'rifat, adabiyot va san'at, din, sport sohalari hisoblanadi.

Milliy an'ana, urf – odamlar – milliy dunyoqarash manbai hamdir. Alazdan har bir avlod o'z ota – onalaridan dunyoqarashni o'zlashtirib, o'z dunyoqarashiga aylantirgan va shu asosda farzandlari dunyoqarashini shakllanitirib, meros tarzida uzatib keldilar.

An'analarning milliyliigi tufayli avlodlar orasida hamfikrlik, o'zaro ishonch, izzat, maqsad birligi, samimiylik tantana qilar edi.

O'zbekiston biz uchun nafaqat xududiy ma'noda Vatan, balki o'zbekona urf – odatlar, an'analar vatani hamdir. SHu sababli biz o'z davlatchiligimiz, tilimiz, ma'naviyatimiz, tariximiz, istiqbolimiz, milliy davlatimizning gullab – yashnashidan manfaatdormiz.

An'ana, urf – odat qanday paydo bo'ladi? Odamlarni bir – biriga yaqinlashtiruvchi, birlashtiruvchi urf – odatlar progressiv, bunyodkor urf – odatlar. Odamlarni boqimandalikka tortuvchi (masalan, “bizga bo'laveradi” deb qarash), bir – biridan farqini bo'rttirib ko'rsatuvchi, bo'lib tashlovchi ko'pchilikka zarar keltiruvchi urf – odatlarni – yomon urf – odatlar deb aytsa bo'ladi.

Ilmiy xulosalarga ko'ra, odamning xotirasida 90% xollarda – o'zi bajargan ish, 50% xollarda – ko'rgani va 10 % xollarda – eshitgani saqlanib qoladi. Demak, yoshlarni biz istayotgan faoliyat turiga jalb qilib, g'oyaviy tarbiyada ko'proq ko'rgazmalilikka, undan ham ko'proq – yoshlarning o'zlari bevosita ishtirok etadigan amaliy mafkuraviy ishlarga jalb qilishimiz kerak.

Milliy istiqlol g'oyasi nafaqat milliy qadriyatlarni o'z ichiga oladi, balki umumbashariy tamoyillarning ham o'z ichiga singdiradi. Ushbu tamoyillarni uyg'unligini ko'rsatish mamlakatimizning jahon hamjamiyatida muhim o'ringa chiqishida ahamiyatlidir.

Umuminsoniy yoki umumbashariy qadriyatlar insoniyat, xalqlar, millatlar erishgan oliy boylik bo'lib, chinakam milliy g'oyalar ham ana shu qadriyatlar tamoyiliga asoslanadi. Qadriyatlarning turlari ko'p va har birining ma'nosi juda keng.

Har qanday qadriyat inson faoliyatining mahsuli, uning ob'ektiv olamiga nisbatan bo'lgan munosabatining ifodasi ,shu bilan birga inson ma'naviy kamolatining muhim omili ekanligi haqida fikr yuritishdan oldin, uning ilmiy-falsafiy ma'nosi, paydo bo'lish va rivojlanishining ijtimoiy -iqtisodiy va ma'naviy

ildizlari, shakllanishidagi shart -sharoit, imkoniyat va zaruriyatlar milliy, mintaqaviy, umumbashariy, diniy qadriyatlar singari turlari nimalardan iboratligini aniqlab olishga to'g'ri keladi.

Qadriyatlar deyilganida jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan va rivojlangan, faqat o'tmish davrlar uchun muhim ahamiyat kasb etib qolmasdan, hozirgi kundagi va kelajakdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadigan kishilar ongiga singib ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy, ma'naviy, tabiiy, diniy, axloqiy, falsafiy va boshqa boyliklar majmui tushuniladi.

Kishilik jamiyati taraqqiyoti va istiqboli uchun ahamiyatli bo'lgan ijtimoiy, ma'naviy hodisalar qadriyatlar jumlasiga kiradi.

Qadriyatlar jamiyat ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotining zaruriy mahsulidir. Qadriyatlar muayyan bir davr sharoit va ehtiyojning mahsuli bo'lish bilan birga uning ko'zgusi hamdir.

Qadriyatlar ijtimoiy taraqqiyot jarayonida namoyon bo'ladi, tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabatlarni o'zida aks ettiradi, o'zgarib, rivojlanib, boyib, takomillashib turadi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida bo'ladigan o'zgarishlar va rivojlanishlar qadriyatlarning mazmunida o'z ifodasini topadi.

Jamiyat taraqqiyoti doimiy ravishda o'zgarib rivojlanib, yangilanib turgan sari qadriyatlarning ahamiyati oshib, ularni baholash mezonlari ham oldingidan boshqacha bo'lib turadi.

Barcha zamonlarda ham inson eng oliy qadriyat hisoblanib kelingan. Hamma narsani qila oladigan oliy mavjudot bu Inson oliy hazratlaridir. Tarix ham, tarixiy taraqqiyot ham inson faoliyotidan boshqa narsa emas.

Insonning barcha davrlar va jamiyki ijtimoiy tuzumlarda eng oliy qadriyat deb baholanishi bejiz emas, albatta. Chunki, unda boshqa jonli mavjudotlardan farq qiladigan eng muhim belgilar-ong, aql-idrok, did-farosat, bilim, odob-ahloq, din, tafakkur, hulq, orzu-umid va baht-saodatga intilish, mas'uliyat tuyg'usi, imon-e'tiqod, maqsad va ehtiros, aqliy kamolot, or-

nomus, ishq-muhabbat, g'urur, nafrat va boshqa ma'naviy javohirlar jamuljamdir.

Insonlar hayoti ijtimoiy munosabatlarga asoslangandir. Inson mavjudot sifatida tabiat mahsuli bo'lsa, ammo odam sifatida u faqat jamiyatda, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy munosabatlar ta'sirida shakllanadi va rivojlanadi. Inson inson bilan tirik. Inson borki hayot bor.

Har qanday ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-siyosiy, taraqqiyot, o'zgarish va rivojlanishning asosida inson mehnati, uning yaratuvchilik amaliy faoliyati yotadi. Inson mehnati, aql zakovati, istedodi va ijodiyoti - bularning hammasi uning buyukligi, oliy qadriyat ekanligidan nishonadir. Dunyoda insondan qudratli aql- farosatli, oqilu dono mavjudot yo'q.

Tabiatni obod va ko'rkam, jamiyatni go'zal va farovon qilishni, aql idrok va tafakkuri bilan odamzotga kerakli bo'lgan jamiki moddiy va ma'naviy boyliklarni shaharu-qishloqlarni, ilm fan va madaniyat maskanlarini, temir yo'lu-tosh yo'llarini, zavodu fabrikalarni bog'u - bo'stonlarni, texnika va texnologiyalarini, mikroskopu teleskoplarni, ulkan kosmik kemalarni, xullas barcha va har qanday qadriyatlarni yaratgan va yaratib kelayotgan inson zoti oliylarining nomi dunyoda mag'rur jaranglaydi.

Insonning oliy qadriyat ekanligi, uning dastavval, o'z-o'ziga va jamiyatning insonga bo'lgan axloqiy munosabatiga aks etadi. Qadriyatlar insonlar o'rtasida o'zaro munosabatda va shaxsning o'z xulqini tartibga solishida ijobiy rol o'ynaydi. O'z qadr-qimmatini anglash shaxsning o'z-o'zini nazorat qilishi bo'lib, uning o'z-o'ziga nisbatan talabchanligi va shunga asoslanadi.

O'z-o'zini hurmat qilish ko'p jihatdan shaxsning taqdirini belgilovchi g'oya muhim xislatdir, chunki u insonni kamsitadigan, yerga uradigan, ho'rlaydigan va shu bilan uning boshqa kishilar ko'z o'ngida o'z qadr qimmatini yo'qotishga sabab bo'ladigan qiliqlariga yo'l qo'ymaydigan to'siqqa aylanadi. Har bir inson, eng avvalo, o'z-o'zini hurmat qilishi, qadr-qimmatini, or-nomusi, shaniga dog' tushirmasligi lozim.

O'zining qadr-qimmatiga yetish, or-nomusini saqlay olish muhim insoniy fazilatdir. O'z izzat - hurmatini bilmasdan turib, ma'naviy boylikka yetishish, elda qadr-qimmat topishni tasavvur qilish qiyin. O'zini hurmat qilmaydigan kishi o'zgalarni qadrlay olmaydi.

Qadr-qimmat shaxsni hurmatlashni uning huquqini e'tirof etishni ham o'z ichiga oladi. Qadr-qimmat shaxsning ijtimoiy va ma'naviy erkinligining muhim tomoni sifatida yuzaga keladi.

Qadriyatlar ijtimoiy hususiyatga ega bo'lib kishilarning amaliy faoliyati jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Inson yo'q joyda biron narsaning qadr - qimmati haqida so'zlash bemanilikdir. Qadriyatlar kishilarni turli sohadagi, avvalo ishlab chiqarish mehnat sohasidagi faoliyati uchun foyda keltiradigan narsalar, hodisalar majmui bilan bog'liq ravishda yuzaga keladi. Barcha ahloqiy normalar, yurish-turish qoidalari singari, jamiki insoniy qadriyatlar ham jamiyat taraqqiyoti talablari asosida yuzaga kelib yangi mazmun, yangi shakl kasb etib, boyib va takomillashib boradi.

Jamiyatimiz har bir insonni e'zozlab uning turmushini yaxshilash bilimi va madaniy saviyasini o'stirish qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish uchun o'zida bor bo'lgan hamma imkoniyatlarini ishga soladi. Keyingi yillarda insonning shaxsiy haq- huquqlarini, erkinliklari va qadriyatlarini muhofaza qilish masalasida juda katta ishlar amalga oshiriladi.

Qadriyatlar moddiy va ma'naviy qadriyatlarga bo'linadi. Moddiy qadriyatlarga kishilarning moddiy ehtiyojlarini bevosita qondiruvchi narsa (ishlab chiqarish vositalari, mehnat qurollari, mehnat ash'yolari, moddiy ne'matlar va boshqa)lar kirsam, ma'naviy qadriyatlar - siyosiy, huquqiy, badiiy, diniy musiqaviy, ilmiy, estetik, falsafiy, axloqiy va boshqa shu kabi qadriyatlardan iboratdir.

Har qanday milliy tafakkur darajasi, avvalo, nimalarga asoslangani bilan o'lchanadi. Bu asos qanchalik mukammal bo'lsa, milliy g'oya ham shunchalar boy bo'ladi. Albatta, bunda moddiy va ma'naviy qadriyatlar uyg'unligi juda muhim rol o'ynaydi.

Odamlarning yashashi va rivojlanishi uchun moddiy noz-ne'matlar qanchalik zarur bo'lsa, ma'naviy qadriyatlar ham shu qadar muhimdir.

Odob -ahloq, urf-odatlar, marosimlar shaklida namoyon bo'ladigan qadriyatlar ham mavjud bo'lib, ular kishilarning o'zaro munosabatlarida, yurish-turishida, axloq va odobida ko'zga tashlanadi.

Odob-axloq, urf-odatlar sohasidagi qadriyatlar xalqimizning eng qimmatli boyligidir. Qadriyatning ana shu turi insonning ichki ma'naviy ehtiyojiga aylansa, kishilar tomonidan o'zlashtirib olinib hayotga oqilona tatbiq etilsa, katta ijtimoiy kuchga aylanadi.

«Xalqimiz asrlar osha yashab kelgan an'analar, urf-odatlari, tili va ruhi negiziga qurilgan milliy mustaqillik mafkurasi, - deydi Prezident, - umuminsoniy qadriyatlar bilan mahkam uyg'unlashgan holda kelajakka ishonch tuyg'usini odamlar qalbi va ongiga yetkazishi, ularni Vatanga muhabbat, insonparvarlik ruhida tarbiyalashi, halollikni, mardlik va sabr-bardoshlikni, adolat tuyg'usini, bilim va ma'rifatga intilishni tarbiyalash yo'lida xizmat qilmog'i lozim. U davlat fuqarolarining buyuk maqsad yo'lida ma'naviy yaqinlashuviga ko'maklashmog'i kerak».(Islom Karimov)

Yaxshilik, halollik, poklik, hamkorlik, xayrihoxlik, hamdardlik, burchga sodiqlikka asoslangan munosabatlarda namoyon bo'ladigan qadriyatlar mavjudligini ham aytmasdan o'tib bo'lmaydi. Inson faqat o'zining tabiiy ehtiyojlarini qondirish bilangina tirik emas. Mehnat qilish, jamiyatda yashash, o'zidan boshqa kishilar bilan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy aloqa va munosabatda bo'lish jarayonida u inson sifatida shakllanadi, o'sib-unadi, qobiliyat, iqtidor va iste'dodlarini namoyon qiladi. Ana shu ma'noda olganda insonga xos bo'lgan ma'naviy va ahloqiy fazilatlar ajralib insoniy qadriyatlar jumlasiga kiradi.

Estetik qadriyatlar ham mavjud bo'lib, ularga birinchi navbatda barcha tabiiy va ijtimoiy go'zalliklar va ulardan zavqlanish kiradi.

Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Abulqosim Firdavsiy, Zahiriddin Muxammad Bobur, Lutfiy, Durbek Sa'diy va boshqa yuzlab va minglab

buyuk adiblarimiz tomonidan yaratilgan nazmiy va nasriy asarlar, son-sanoqsiz badiiy adabiyot namunalari estetik qadriyat sifatida hozirgi paytda ham jamiyatimiz ma'naviy taraqqiyotida katta o'rin egallab kelmoqda. Sa'natning, badiiy adabiyotning ham o'tmishda va hozirgi paytda yaratilib, voqelik aks ettirgan barcha turlari odalarning fikr va xislariga ta'sir etib, hayotni chuqurroq o'rganishlariga yordam bermoqda. Insonning murakkab ichki dunyosini, psixologiyasini, ruhiy holatlarini, ma'naviy qiyofasini tasvirlashda san'atning hech qaysi turi badiiy adabiyotga tenglasha olmaydi. Badiiy adabiyot estetik qadriyat sifatida kishilarga hayot, jamiyat to'g'risida ong-bilim beradi, hayot hodisalari va mustaqil O'zbekiston davlati to'g'risidagi tasavvurimizni boyitadi, jamiyatimizga xos bo'lgan murakkabliklar, ziddiyatlar, qiyinchilik va muammolarni ob'ktiv haqiqat tarzida bilib olishimizda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Qadriyat tushunchasi hayotning o'zi kabi keng qamrovli bo'lib, u har bir xalq ming yillar davomida hayotning turli sohalari bo'yicha sayqallab to'plagan tajribalaridir. Axloqiy qadriyatlar, harbiy qadriyatlar, davlatchilik qadriyatlari - bularning hammasi bir butun holda halqning dunyoviy qiyofasini o'ziga xos tarzda belgilaydi. Darhaqiqat, O'zbekistonning kuch - qudrati manbai - xalqimizning umuminsoniy qadriyatlariga sodiqligi, ulug' ajdodlarimizning avlodlarga o'tayotgan ma'naviy merosi-ning kuchliligida, fuqarolarimizning el - yurtga, ona-zaminga bitmas-tuganmas mehrida, milliy g'ururidadir.

O'zbek xalqi uchun asrlar bo'yi diniy qadriyatlar ham muhim rol o'ynab kelgan. Diniy qadriyatlarda, birinchi navbatda islom ta'limotida jamiki odamzodni ezgulikka, haq va haqqoniyatga to'g'ri yo'lga da'vat etadigan nohaqlikka qarshi kurashishga chorlaydigan shunday bebaho falsafiy g'oyalar, nodir hikmatlar, rivoyatlar, pandu-nasihatlilar, eng muhim yo'l-yo'riqlar borki, ularni bilib, chuqur o'zlashtirib olib, qat'iy amal qilgan, ularga suyanib faoliyat ko'rsatgan kishi hayotda hech qachon qoqilmaydi.

Islom dini - bu ota -bobolarimiz dini, u biz uchun iymon, ham axloq, ham diyonat, ham ma'rifat ekanligini unutmaylik. U quruq aqidalar yig'indisi emas. Ana shu ma'rifatni kishilarimiz jon-jon deb qabul qiladilar va yaxshi o'g'itlarga amal qiladilar. Mehr- oqibatlari nomusli, oriyatli bo'lishga, izzat-ehtirom tushunchalariga rioya etishga harakat qiladilar. Diniy qadriyatlar odamlarni ilm-fanga, ma'naviy va marifatga da'vat etganligi jihatidan ham alohida ahamiyatga ega. Buni islom dini misolida ko'rish mumkin. Islom - ilm demakdir. Uning muqaddas kitobi - «Qur'on» da 78000ga yaqin so'z bo'lsa unda «ilm» so'zi turli hollarda 765 ta marta takrorlanadi. Islom faqat shar'iy ilmlarni emas, balki barcha ilmlarni o'rganishni foydali deb hisoblagan. Qur'on Karimning oyat va suralari, payg'ambarimizning Hadislari ilmga da'vat bilan to'la. Islom ilm talab qilishni ibodat darajasiga ko'targan, hattoki ibodatdan ilmni ustun qo'ygan.

Islom sha'riy hukmida shunday ma'naviy-axloqiy tomonlar, qoidalar borki, ularni biror millat yoki davlat chagarasi bilan cheklab bo'lmaydi. Har qanday musulmon, har bir inson bajarilishi kerak bo'lgan sha'riy qoidalar sifatida o'g'rilik qilmaslik fohishabozlik, poraxo'rlik, ichkilikbozlik, g'iyohvandlik kabi qabih ishlar bilan shug'ullanmaslik, insofli - diyonatli bo'lishi, ota-onaning xizmatlarini qilib, ularni rozi qilish va boshqalarni eslatib o'tish mumkindir.

Din va diniy qadriyatlarning xalqparvarlik, millatsevarlik va insonparvarlik sohasidagi tarbiyaviy ahamiyati nafaqat o'tmish davrlar uchun, balki hozirgi payt va kelajak uchun ham benihoyadir.

Diniy qadriyatlarning mafkuraviy-ma'rifiy, axloqiy ahamiyati tabiatga mehr - muhabbat, tevarak - atrofni, suvni, havoni, tuproqni, hayvonotu nabotatni asrab - avaylash haqidagi islom ta'limoti g'oyalarida to'la ifoda topgandir.

Sayyoramizdagi, O'zbekiston saxiy zaminidagi jamiki noz-ne'matlarning qadriga yetish barcha odamlarning insoniy burchidir. Tabiiy boyliklarni, yer-suv va daraxtlarni, hayvonot olamini avaylab asrash Qur'ondagi oyat

suralariga, Payg'ambarimiz Hadislaridagi g'oyalarga to'la hamohangdir. SHuning uchun ham tabiatni e'zozlash haqidagi har bir falsafiy g'oya o'zining ilmiy va amaliy ahamiyatiga ko'ra umuminsoniy qadriyatlar hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, o'zligini anglagan har bir xalq, millat va davlat jamiyatning umumbashariy tamoyillarini e'tirof etishi, rivojlantirishi shart va bu tamoyillarning milliy asoslari, mohiyatini tushuntirib borish milliy istiqlol g'oyasining asosiy vazifalaridan biridir.

XULOSA

Ma'lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilmu-ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti hamda millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan. Bugun oila bilan bir qatorda bola tarbiyasi va uning ma'naviy qiyofasiga mas'ullik bevosita **ta'lim-tarbiya maskanlari** zimmasidadir. Bu yerda ta'lim-tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy ishlar qanchalik puxta tashkil etilsa, bola ma'naviyatining tug'ri shakllanishiga shuncha katta ta'sir ko'rsatadi. Bugun **ustoz-murabbiylarga** qo'yilayotgan talab ham qat'iy: har bir bolaning chuqur bilim olishi bilan birga uning ma'naviy dunyoqarashini kengaytirish, dunyoda sodir bo'layotgan mafkuraviy jarayonlar, turli buzg'unchi g'oyalarning mazmun-mohiyatini yoshlar ongiga singdirish va ularning ongida buzg'unchi g'oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirish dolzarb vazifa. Chunki bugun bir bola tarbiyasiga nisbatan e'tiborsizlik ertaga bir necha yoshlarning buzg'unchi g'oyalar ta'siriga tushib qolishiga olib kelishi mumkin. Shu o'rinda I.A.Karimov aytganidek, bugun yoshlarimiz qanday qadriyatlar sari intilmoqda, qanday niyat, orzu, o'y-xayollar bilan yashamoqda, biz bunga aslo loqayd va befarq qaramasligimiz kerak. Ota – ona, ustoz, murabbiy, yetakchi–rahbar sifatida bu jarayonni chetdan turib kuzatib turishga xaqqimiz yo'q. O'zini haqiqiy pedagog, murabbiy–ustoz deb bilgan har bir ziyoli kishi ta'lim-tarbiya maskanida faoliyat yuritarkan, demakki, shu yerda tahsil olayotgan har bir bolaning tarbiyasida, ma'naviy olamining shakllanishida bevosita mas'uldir. **«Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar-yaxshilik va ezgulik, olijanob va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir»².**

Xalqimiz orasida o'zini bolalar tarbiyasiga bag'ishlagan, o'nlab ajoyib shogirdlar tarbiyalagan, o'zining yuksak ma'naviyati bilan el hurmatiga sazovor bo'lgan murabbiy–ustozlarimiz qancha. Ular tarbiyalagan shogirdlar mamlakatimiz taraqqiyotiga, xalqimizning ma'naviy kamolatiga xizmat qilmoqda. Ammo «guruch kurmaksiz bo'lmagani»dek, o'zini ziyoliman, deb yurib, turli buzg'unchiliklar bilan shug'ullanayotgan insonlar ham oramizda yo'q emas, albatta. Ustozning yoshlar tarbiyasi, ma'naviy qiyofasining shakllanishidagi o'rni alohida. Qachonki, ustozning o'zi o'z ishiga fidoyi, jonkuyar va u yuksak ma'naviyat egasi bo'lsa, uning tarbiyasini olgan yoshlar ma'naviyatida turli buzg'unchiliklarga o'rin olmaydi. Xalqimiz «Ustoz otangdek ulug'» deganida shogirdning o'z ustoziga hurmati bilan birga ustoz o'zining

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. 52-b.

yuksak insoniy fazilatiga ega bo'lishini ham nazarda tutgan, desak xato qilmagan bo'lamiz.

Xulosa qilib aytganda, o'zligini anglagan har bir xalq, millat va davlat jamiyatning umumbashariy tamoyillarini e'tirof etishi, rivojlantirishi shart va bu tamoyillarning milliy asoslari, mohiyatini tushuntirib borish milliy istiqlol g'oyasining asosiy vazifalaridan biridir.

Adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2003.
2. Karimov I.A. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar deb hisoblashar edi. T. «O'zbekiston». 2005.
3. Karimov I.A. Bizni tanlagan yo'limizdan hech kim qaytara olmaydi. «Xalq so'zi» gazetasi 17 may 2005 yil.
4. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T-8. -T.: O'zbekiston, 2000.t 462-467 b.
5. Karimov I.A. «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» T-9. T.: «Yangi avlodi», 2001..
6. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T-6. T.: O'zbekiston, 1997. 324-346 b.
7. Imom Buxoriy. «Hadis». 4 jildlik. T.: Qomuslar bosh tahririyati. 1993.
8. Abu Nasr Farobiy. «Fozil odamlar shahri». – T «Adabiyot», 1993.
9. Azizxo'jaev A.A. CHin o'zbek ishi. – T.: «Akademiya», 2003.
10. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: «Yangi asr avlodi», 2001.
11. Alimova D. Insoniyat tarixi - g'oya va mafkuralar tarixidir. T.: «Yangi asr avlodi», 2001.
12. Amir Temur jahon tarixida. YuNESKO. Parij, 1996.
13. Abdurahimova N., Ergashev F.R. Turkistonda chor mustamlaka tizimi. T.: «Akademiya», 2002.
14. B.Boyqobilov. «O'zbeknoma». T.: ««SHarq»», 1999.
15. Boboiev G'. G'ofurov Z. Milliy istiqlol mafkurasi va taraqqiyot. T.: «Yangi asr avlodi», 2001.